

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi**

TASDIQLANMAS VA AMALGA KIRILGAN

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil 24.08.2023 da qo'shilgan bo'yicha tashkil etilgan boshqarmaning

JORFIY ETIBARLIGI

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi

**70230101 - Lingvistika (roman-german tillari)
magistratura mutaxassisligining malaka talablari**

Mazbur malaka telablarini "Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi", "Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining Oliy ta'lif, yo'nalishchan va mazbur malakalarini boshqarmaning", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tashviq san'ati dawlati "Uzmarkal", turliy standartlarni va fikrlar beruvchilashni taklif qilgan qurʼon shaharidagi oʻsishgan va qurʼon shahariga qarab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi boshqarmaning Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi

ЎЗР ОҮМТВ

Буйруқ № 397

29.08.2023 йил

Toshkent

ISHLAB CHIQILGAN:

- O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil «29» 08 dagi 397-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligining tavsifi.....</i>	4
1.1	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1	<i>70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha malaka talabining qo'llanilishi</i>	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2	<i>70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi</i>	4
1.2.1	<i>70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari</i>	4
1.2.2	<i>70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari</i>	4
1.2.3	<i>70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari</i>	5
1.2.4	<i>70230101-Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar.....</i>	6
2.1.	Umumi kompetentsiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetentsiyalar.....	7
2.3.	Umumi va kasbiy kompetentsiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan umumiyl talablar	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2	<i>70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....</i>	8
2.3.3	<i>70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....</i>	9
	Bibliografik ma'lumotlar	10
	Kelishuv varag'i	11

1.1.1.70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar.....

- qidiruvchilarning qidiruvchi va qidiruvchilarning qidiruvchilari va qidiruvchilarning qidiruvchilari va qidiruvchilarning qidiruvchilari;

- Panjar shodomilasi va formasiy hajmi taqsiy etishlari va ro'yxatlardagi hajmi, shuningdek, qidiruvchilarning qidiruvchilari;

- Panjar shodomilasi va formasiy hajmi taqsiy etishlari va ro'yxatlardagi hajmi, shuningdek, qidiruvchilarning qidiruvchilari;

- Panjar shodomilasi va formasiy hajmi taqsiy etishlari va ro'yxatlardagi hajmi, shuningdek, qidiruvchilarning qidiruvchilari;

- Panjar shodomilasi va formasiy hajmi taqsiy etishlari va ro'yxatlardagi hajmi, shuningdek, qidiruvchilarning qidiruvchilari;

- Panjar shodomilasi va formasiy hajmi taqsiy etishlari va ro'yxatlardagi hajmi, shuningdek, qidiruvchilarning qidiruvchilari;

- Panjar shodomilasi va formasiy hajmi taqsiy etishlari va ro'yxatlardagi hajmi, shuningdek, qidiruvchilarning qidiruvchilari;

1. 70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **70230101 - Lingvistika (roman-german tillari)** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilar;
- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalar;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilar va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari.

70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) – "Tillar" ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, u uzluksiz ta'lim tizimining davlat va nodavlat tashkilotlarida o'rganilgan xorijiy til va adabiyotini o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, mahalliy va xalqaro tashkilotlarda tarjimonlik, xorijiy tilda materiallar tayyorlash va ularni tahrir qilish kabi kasbiy ko'nikma, mutasaddilik kobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari va metodlari majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta'lim, malaka oshirish va qayta tayyorlash, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limda o'z mutaxassisligiga taalluqli fanlarni o'qitish;
- til o'qitish markazlarida, ilmiy va texnologik masalalar bilan shug'ullanadigan muassasalarda;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, oliy va o'rta maxsus ta'lim, xalq ta'limi tizimi tashkilotlarida boshqaruv jarayonlari;
- ekspertiza-tahlil markazlari;

- tahririyat va nashriyotlarda matnlarni tahrir qilish jarayonlari;
- konsalting va marketing tashkilotlarida faoliyat yuritish.

1.2.3. 70230101 - *Lingvistika (roman-german tillari)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- tarjima va tahrir faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- konsalting xizmati faoliyati.

1.2.4. 70230101 - *Lingvistika (roman-german tillari)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy vazifalari:

70230101 - *Lingvistika (roman-german tillari)* mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;
- mustaqil ravishda bilimini takomillashtirish, tanqidiy fikrlesh va tahlil ko'nikmalariga ega bo'lish, nazariy va amaliy bilim, malaka va ko'nikmalarini o'z ilmiy tadqiqot faoliyatida qo'llash;
- ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, nazariy va amaliy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish, topish va tahlil etish;
- ilmiy tadqiqot olib borish metodlari va tahlillarni bilish, ularni ilmiy faoliyatda qo'llay olish;
- ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;
- mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;
- tadqiqot sifatini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish, yangi axborotni o'rgangan axboroti bilan solishtira olish;
- o'z tadqiqotining natijalarini aniq va ravon bayon eta olish, ularni pragmatik amaliyotda qo'llay olish.

Pedagogik faoliyatida:

- o'quv fanlarini o'qitish metodikasini o'zlashtirish va amalda qo'llash;
- elektron va distansion o'qitish metodlarini egallash va pedagogik faoliyatida qo'llash;
- oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjalarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;
- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli metodlar va usullar, vositalarni egallagan holda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;
- uzluksiz ta'lim tizimining DTS, malaka talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjalarni ishlab chiqishda ishtirok etish;
- o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqish, loyihalash, modellashtirish ko'nikmalariga

ega bo'lish;

- oliv ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;
- o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;
- turli sohalardagi axborot kommunikativ faoliyatda bilim va malakalarni tizimlashtirish, integrasiyalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish, ulardan lingvistika, lingvovidaktika fanlari sohasidagi muammolarni yechishda samarali foydalanish;
- milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy, ta'limga oid, ijodiy, reklama loyihibarini ishlab chiqish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

Tarjima va tahrir faoliyatida:

- xorijiy tildagi turli tipdag'i matnlarni tarjima va tahrir qila olish;
- madaniyatlararo muloqotning turli jabhalarida muayyan tarjima shakllarini, strategiyalarini va usullarini qo'llab tarjima qilish;
- lisoniy, lingvomadaniy adekvatlikni va kommunikativ maqsadni inobatga olgan holda matnni tarjima qilish;
- anjuman va seminarlardagi ilmiy materiallarni tahrir yoki tarjima qilish;
- reklama tashkilotlarida reklama matnlarini yaratish va tarjima qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ta'lim jarayonini boshqarish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish, loyiha komandasini boshqarish;
- kasbiy sohada ijtimoiy va iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqqan holda iqtisodiy samaradorlikni baholash va hisoblash usullarini, ta'lim menejmentini egallash;
- o'zining kasbiy faoliyatiga oid mehnat bozori va ish bilan ta'minlanish bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish;
- mehnat jamoasining umumiyligi maqsadlariga erishish, ijrochilarning faoliyatini monitoring qilish maqsadida individual va guruh faoliyatini vujudga keltirish;
- auditoriya va pedagogik jamoani boshqarish hamda o'quv jarayonini o'rnatilgan tartibda tashkil qilish;
- jamoa psixologiyasiga oid tizimli bilimlarni, tashkiliy ishlarda menejment asoslarini qo'llashni bilish;
- e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ekspert-tahliliy ishlarni amalga oshirish maqsadida, induktiv va deduktiv kuzatish, tahlil qilish, baholash va statistik tahlil qilish.

Konsalting xizmati faoliyatida:

- chet tillarini o'rganish va o'qitish sohasida mavjud holatning analitik obzorini ishlab chiqish;
- xorijiy manbalarni filologik jihatdan tadqiq etish bo'yicha ekspertiza guruhlarida ishtiroy etish;
- ixtisoslikka mos mavzular bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

2. 70230101 - *Lingvistika (roman-german tillari)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetentsiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, tilshunoslik fanlari metodologiyasi, tilshunoslik muammolari va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qibiliyatiga ega bo'lishi;
- axborot-qidiruv, ekspert va avtomatlashgan tizimlarni ishlatish, turli sohalarda avtomatlashgan tizimlarning lingvistik ta'minotini ishlab chiqish, zamonaviy usullarni qo'llash;

- xorijiy tilda kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o‘zlashtirilgan bilimlarini tanqidiy ko‘rib chiqishi va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o‘z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asoslangan mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishslash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:

- xorijiy tilni o‘qitishda turli yondashuv, yo‘nalish va texnologiyalarni rivojlantirish orqali yangi modellarni ishlab chiqish;
- turli madaniyat va jamiyat vakillari orasida taxminiy muloqot vaziyatlarini modellashtirishni bilishi;
- xorijiy tilni shaxslararo, madaniyatlararo, kasbiy muloqot vositasi sifatida mukammal egallashi;
- kasbiy sohaning barcha turlarida chet tili kommunikativ kompetentsiyasiga (lingvistik, ijtimoiy-lingvistik, diskursiv, ijtimoiy-madaniy, o‘quv-kognitiv) ega bo‘lishi.
- milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy, ta’limga oid, ijodiy, reklama loyihalarini ishlab chiqish;
- loyihalash malakalarini qo‘llash orqali kompyuterning matn redaktori yordamida tarjima matnnini rasmiylashtirish;
- turli madaniyat va jamiyat vakillari orasida taxminiy muloqot vaziyatlarini modellashtirishni bilishi;
- autentik tilni kognitiv va formal modellashtirish usullarini va metatillarni yaratish usullarini bilish;
- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishslash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo‘yicha davlat va xorijda e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e’lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo‘lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallahni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan umumiy talablar

Talabalar umumiy va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketma ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallahga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligidan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘shimcha bilim berish, bevosita mutaxassisligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat

qiladigan, shuningdek, magistrlarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorlilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash: Magistrlik dissertasiyasining mutaxassislik bo'yicha muhim hamda istiqbolli mavzulariga bag'ishlangan, ilmiy jihatdan asoslangan, metodologik yo'llari belgilangan, mazmuni tizimli shaklda ilmiy tadqiqotning asoslarini, uning bajarilishini va olingan natijalarini o'zida aks etttiradi. Bunda ilmiy faktlar har taraflama tahlil qilinadi va muayyan hodisaning ilmiy va amaliy ahamiyati isbotlanadi.

Mutaxassislik bo'yicha qo'yidagi ilmiy-pedagogik amaliyotlar o'tkaziladi:

Ilmiy-pedagogik ish – mutaxassislik bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayoniga tatbiq etish, amaliy ko'nikma va kasbiy kompetentsiyalarni takomillashtirishga qaratiladi, shuningdek, o'quv-uslubiy ko'rsatmalar va o'quv rejalarini tuzish, mutaxassislik bo'yicha fanlardan nazariy, amaliy va mustaqil mashg'ulotlarni o'tkazish. Ilmiy-pedagogik ish oliy ta'lim muassasalarida va tashkilotlarning tadqiqot bo'limlarida o'tkazilishi mumkin.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – ilmiy va kasbiy kompetentsiyalarni maqsadli ravishda takomillashtirish, mutaxassislik bo'yicha ilmiy bilimlarni chuqurlashtirish, ilmiy sohadagi so'nggi yangiliklar, ishlanmalar va innovasion texnologiyalarni o'rganish, shuningdek, eksperimental tadqiqotlar natijalariga ishlov berish, ularni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va tavsiyalarni ishlab chiqish malakalarini takomillashtirish, tadqiqotchilik va mustaqil ilmiy izlanishlar malakalarini oshirishga qaratilgan.

2.3.1. Kvalifikatsiyalar: tilshunos, tadqiqotchi-pedagog

2.3.2. 70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	1320	44
Tanlov fanlar	480	16
Ilmiy-pedagogik ish va ilmiy amaliyot	900	30
Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash va himoya qilish	900	30

2.3.3. 70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	1320	44	
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	AXT11-208	Amaliy xorijiy til	240	8	1-2
1.03	ZLING11-208	Zamonaviy lingvistika	240	8	1-2
1.04	MLING1104	Matn lingvistikasi	120	4	1
1.05	IKFCHT11-208	Ilmiy va kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan chet tili	240	8	1-2
1.06	LTM1204	Lingvistik tahlil metodlari	120	4	2
1.07	MFO'M1304	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	3
1.08	LPRG1304	Lingvopravmatika	120	4	3
		Tanlov fanlar	480	16	1-3
		Jami	1800	60	
	IIMD21-430	Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasini tayyorlash hamda himoya qilish	900	30	1-4
	IPI23-414	Ilmiy pedagogik ish	420	14	3-4
	ILAM2416	Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish)	480	16	4
		Jami	1800	60	
		Hammasi	3600	120	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, kredit-modul, magistratura mutaxassisligi, kasbiy faoliyat ob'yekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va o'quv dasturi, profil, nutqiy kompetentsiya, grammatik, leksik va diskursiv kompetentsiya, tarjima va tahrir, konsalting xizmati, ta'lif texnologiyalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash, ta'lif sohasi, mustaqil ta'lif, davlat attestasiyasi, pedagogik jamoa, lingvomadaniy adekvatlik, lingvistik, ijtimoiy-lingvistik, ijtimoiy-madaniy, o'quv-kognitiv kompetentsiyalar, lisoniy vosita, xorijiy tilni o'qitish, muloqotni modellashtirish, ekstralikingvistik omil, grammatik struktura, sohaviy termin.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar
iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Rektor v.v.b. B.Kulmatov

2023 yil "C"



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor Sh.Yakubov

M.O.

2023 yil



Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti

Toshkent davlast sharqshunoslik universiteti

Rektor G.Rixsiyeva

M.O.



"O'zbekistonda xorijiy tillar"
elektron ilmiy-metodik jurnali va Internet
portali

Rektor Sh.Sirojiddinov

M.O.

2023 yil "



Bosh muharrir G.Shukurova

M.O.

2023 yil "



**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 0230101 - Lingvistika (roman-german tillari)
mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliv
ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtaida**
KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

" " 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “O'zbekistonda xorijiy tillar” elektron ilmiy-metodik jurnalni va Internet portalini direktori G.Shukurova, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori G.Rixsiyeva, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Sh.Sirojiddinov, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori B.Kulmatov birgalikda quyidagi magistratura mutaxassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70230101 - Lingvistika (roman-german tillari) mutaxassisligi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirotini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirotini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2021-yil 19-maydagi “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5117-son qarorlari hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Mutaxassislik bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**O'zbekistonda xorijiy tillar” elektron
ilmiy-metodik jurnalni va Internet portalini
direktori**

G.Shukurova

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
rektori**

G.Rixsiyeva

**Toshkent davlat o'zbek tili ya adabiyoti
universiteti rektori**

Sh.Sirojiddinov

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
rektori v.v.b.**

B.Kulmatov

